

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ MUNOSABATLARINING MUHIM MASALALARI

Ochilova Zebo Kamoliddin qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi, „Moliya“ yo'nalishi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14557136>

Anotatsiya

Mazkur tezisdagi byudjet-soliq siyosatining bugungi kundagi dolzarb masalalari o'rganib chiqilgan va shu bilan birga „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi“da belgilab berilgan soliq sohasini takomillashtirish jihatlarini o'z ichiga oladi.

Byudjet-soliq siyosati to'g'ri va aniq yo'lga qo'yilishi uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, maxsus hozirgi holatga mos keladigan dasturlarni ishlab chiqish, xorij tajribalarini o'rganish va tadbiq etish, IT savodxonligiga ko'proq e'tibor qaratish va byudjet-soliq siyosatida nazoratni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Bugungi kundagi iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini berayotgan qo'shimcha o'zgarishlar va ba'zi kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan muammolar ham keltirib o'tilgan. Shu bilan birga bu muammolarning oldini olish bo'yicha taklif va xulosalar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Byudjet-soliq siyosati, O'zbekiston iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot, fiskal ma'suliyat, Prezident Farmoni, strategiya, konseptual, QR kodlar, E-Ijara, onlayn-kassa apparat, onlayn-terminallar, axborot texnologiyalar, IT, audit

Soliqlar davlat va mahalliy hokimiyatlar daromadlarining katta qismini tashkil etadi. Jamiyat esa ularni to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida yig'ish davlatning boshqa funksiyalarini masalan sog'liqni saqlash, ta'lim, mudofaa va shunga o'xshash sohalarni o'z vaqtida samarali va to'liq bajarishga imkon beradi. Shuning uchun hukumatimiz o'z vazifalarini oson, kam xarajat va samarali bajarishning eng ilg'or usullarini topishadi va ularni sinab ko'rgan holda amaliyotga tadbiq etishadi. Bugungi kundagi axborot texnologiyalari ilg'or rivojlangan asrda esa bu usullarni hech ikkilanmasdan raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni yanada rivojlantirish deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda byudjet-soliq siyosati va amaliyoti davlat iqtisodiyotini boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jihatlar nafaqat davlat xarajatlari yo'nalishini va hajmini belgilaydi, balki iqtisodiy faoliyat, jamiyatning moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy sohaga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kundagi zamonaviy sharoitlarda jahon iqtisodiyoti globalashuvning qiyinchiliklari, demografik strukturadagi o'zgarishlar va

texnologik yangiliklar bilan yuzlashayotganda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunga misol qilib ijtimoiy sohani ta'minlash, investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, davlat xizmatlari va infratuzilmasi sifatini yaxshilash, byurokratik xarajatlarni kamaytirish va fiskal ma'suliyatni taminlash kabilarni keltirishimiz mumkin. Shuning uchun byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga qaraydigan bo'sak, kundan-kunga iqtisodiy sohaning rivojlanib borayotgani va iqtisodiyotning barcha sohaları raqamli iqtisodiyotga qadamma-qadam o'tayotgani sababli byudjet-soliq siyosatida ham ko'plab islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi va 2017-yil 7-fevralda „ O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu strategiyada mamlakatimizning kelajagini belgilaydigan barcha sohadagi aniq maqsadlar belgilab olindi. Endilikda bu belgilab olingan barcha sohalar rivoji uchun ajratilgan mablag'lar samaradorligini yanada ehtiyotkorlik bilan kuzatilishi va baholanishi, ya'ni doimiy ravishda audit o'tkazib turilishi ham zarur. Maqsadlarning amalda bajarilishini ta'minlashimiz uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi ta'minlanishi kerak:

- byudjet-soliq siyosatining davr bilan hamnafasligini ta'minlash;
- byudjet-soliq siyosati davlatimiz rivojlanishining o'zgargan sharoitlariga tezda moslasha bilishini ta'minlash;
- o'z yechimini kutayotgan vazifalarni hal etish uchun kerakli usullarni o'z vaqtida topa bilish;
- strategik konseptual yechimlarni ishlab chiqish;
- mablag'larga qarab yashash talabiga rioya etilishini ta'minlash;
- fuqorolar ijtimoiy talab-ehtiyojlarini qondirishning moliyaviy bazasinita'minlashga o'tish;

Bundan tashqari mamlakatimizda so'ngi yillarda xorijiy davlatlarning bugungi kundagi tajribalariga tayangan holda soliq tizimida bir qancha elektron tizimlar joriy qilindi:

- QR-kodlar asosida maxsus nazorat belgilarini ro'yxatdan o'tkazish va skanerlash tizimi;
- QQS to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazishning maxsus tizimi;
- onlayn-kassa apparatlari va onlayn-terminallar axborot tizimi;



- ko'chmas mulk ijara shartnomalarini hisobga qo'yishga mo'ljallangan E-Ijara (ijara.soliq.uz) elektron servisi;
- soliq to'lovchilar va ularning hisobvaraqlarini elektron ro'xatdan o'tkazish tizimi;
- soliq to'lovchilarning shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotini elektron topshirish tizimi;

Bularning joriy qilinishi ham byudjet-soliq siyosatining to'g'ri va to'liq amalga oshirilishiga o'zining katta ulushini qo'shishidir. Bular kabi xorij tajribasida sinovdan o'tgan usullarni mamlakatimizga joriy qilinishi byudjet-soliq siyosatida ancha o'z natijalarini ya'ni ijobiy natijalarni ko'rsatishi bilan bir qatorda bu bilan bog'liq bir qancha chalkashliklar va muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bunday chalkashliklar va muammolarning eng asosiy sabablaridan biri bu iqtisodiy va unga aloqador barcha sohalar to'liq raqamlashtirishga o'tkazilmaganligidadir va bu barcha sohalar to'liq raqamlashtirishga o'tmas ekan bir-biriga bog'liq muammolar zanjiri davom etaveradi.

Soliq va soliqqa tortish sohasi mamlakatdagi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va davlatning barcha tuzilmalari bilan chambarchas bog'liq ekan, soliq siyosatida faqatgina raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishning o'zi iqtisodiy sohani balki davlat daromadlarining oshishi uchun yetarli emas. Bugungi kunda joriy etilgan raqamli texnologiyalar o'z ishini yaxshi biladigan, tartibli, zamon bilan hamnafas va halol soliq to'lovchilarga qator yangiliklar va qulayliklar bergan bo'lsada, axborot texnologiyalarni yaxshi tushunmaydigan, telekommunikatsiya sifati past hududlarda yashovchi soliq to'lovchilarda qo'shimcha muammolarni keltirib chiqarmoqda, ba'zi egri yo'llardan fodalanadigan, insofsiz soliq to'lovchilar uchun esa soliq to'lashdan qochish uchun yangi yo'llarni ochib bermoqda.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish uzoq muddatli jarayon hisoblanadi va u samarali natijalarga olib chiqadi, ammo ushbu jarayonni amalga oshirishdagi faoliyat anchagina murakkab va yo'qotishlardan holi emas, ya'ni qisqa muddatli raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar talaygina. Raqamli iqtisodiyot sharoitida byudjet-soliq munosabatlarining muhim masalalari tahlili asosida bir qancha xulosalar chiqarish va davlat byudjet-soliq siyosatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin:

1. Davlat xarajatlarini optimallashtirish va davlat dasturlatining samaradorligini monitoring qilish. Davlat dasturlarini baholashni kuchaytirish

va byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida doimiy ravishda audit nazoratini o'tkazib turish va xarajatlar tahlilini olib borish zarur.

2.Soliqqa tortishda uzviy aloqador boshqa tarmoq va sohalar hali to'liq raqamlashtirish va mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini bir-biri bilan ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi mukammal raqamli tizim yaratilishi zarur.


3.Biz amaliyotga tadbqiq etgan dasturiy mahsulotlar boshqa rivojlangan davlatlarda o'z samarasini bergan andozalar hisoblanadi va biz bu dasturiy mahsulotlarni shundayligicha foydalanmasdan, unga mahalliy o'ziga xosliklarni va vaqtga mos o'zgarishlarni muntazam ravishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib borishimiz zarur.

4. Amaliyotga tadbqiq etgan dasturlarni mamlakatimizni bugungi kundagi iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda ularni moslashtirishimiz uchun kuchli IT mutaxassislarini yetishtirishga e'tibor qaratishimiz zarur.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, byudjet-soliq siyosatini rivojlantirishda faqat bir tomonlama cheklanibgina qolmasdan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olgan holda muammolar yechimini topish va ushbu sohalarining qisqa muddat ichida raqamli iqtisodiyotga o'tish yo'llarini xorij tajribalaridan o'rganib, ularni sinab, tahlil qilgan holda amaliyotga tadbqiq etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli PF.2017.7-fevral
Malikov.S.T Byudjet-soliq siyosati. 2019-yil.
2. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq-byudjet siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari. TDIU. „Qamar Media“. 2024-787b.
3. Agzamov.A.T. Soliq tizimidagi islohotlar - makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim fiskal omili sifatida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar". 2015 №2.
4. Usmonov.Q.A. Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy va elektron jurnali. 2014. №4
5. <https://lex.uz/docs/-6770520>
6. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/835095/5e7315b87a52b.pdf>
7. <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/30430/19476/30258>
8. <https://docx.uz/document/hozirgi-sharoitda-o-zbekiston-respublikasida-byudjet-soliq-siyosatining-ustuvor-yo-nalishlari-b8f27a13?lang=uz>





9. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/2024_yilda_soliq_va_byudjet_siesatidagi_asosiy_uzgarishlar
10. <https://lex.uz/docs/-6718864?ONDATE=01.01.2024>